

SAYFIDDIN BOXARZIY ASARLARIDA FARZAND TARBIYASI

HAQIDAGI QARASHLARI

*Norova Malika Fayzulloevna,
Dotsent, Buxoro Davlat Universiteti
Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası
Email:norova.83@list.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada farzand tarbiyasi mavzusi va komil insonni shakllantirish bosqichlari ko'rsatib o'tilgan. Aziziddin Nasafiy "Komil inson" asari, Bahouddin Naqshband, Ya'qubi Charxiyning "Risolai unsiya", Xojagon ta'limoti asarida komil inson masalalari yoritilgan. Do'stga munosabat, axloqiy masalalar maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: axloq, madaniyat, jamiyat, falsafa, ishonch, qanoat, oliyjanoblik, saxiylik, halollik, adolat, sabr, komil inson, do'stlik, sadoqat.

ВЗГЛЯДЫ САИДФИДДИНА БУХАРЗИ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

*Норова Малика Файзуллоевна
Доцент, кафедра социально-политических наук,
Бухарский государственный университет.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы воспитания детей и этапы формирования совершенного человека. Раскрываются темы, представленные в таких произведениях, как «Совершенный человек» Азизиддина Насафий, «Рисалаи унсия» Якуби Чархия и учении Ходжагонов. Также отражены отношения к другу и нравственные аспекты.

Ключевые слова: нравственность, культура, общество, философия, доверие, удовлетворённость, благородство, щедрость, честность, справедливость, терпение, совершенный человек, дружба, преданность. Взгляды Саидфиддина Бухарзи на воспитание детей в его произведениях

THE VIEWS OF SAIFIDDIN BUKHARI ON CHILD UPBRINGING IN HIS WORKS

Norova Malika Fayzulloevna,
Associate Professor,
Department of Social and Political Sciences,
Bukhara State University.

Annotation: *This article discusses the topic of child upbringing and the stages of developing a perfect (ideal) human being. It highlights the concept of the perfect person as explored in works such as Aziziddin Nasafi's "The Perfect Human", Bahouddin Naqshband, Yaqubi Charxiy's "Risala-i Unsiyya", and the teachings of the Khwajagan. The article also addresses friendship and ethical issues.*

Keywords: *ethics, culture, society, philosophy, trust, contentment, nobility, generosity, honesty, justice, patience, perfect human, friendship, loyalty.*

Kirish

Sayfiddin Boxarziy tasavvuf ta'limotining qonun-qoidalari, nazariy va amaliy jihatlariga rioya etib, diniy-tasavvufiy qarashlari shakllangan va o'z asarlarida komil insonga oid muhim jihatlarni tahlil qilgan. Biz Shayxul Olam ma'naviy merosini o'rganish asnosida, undagi eng asosiy g'oyaga tayanib, bu ulug' zotning komil inson konsepsiyasini talqin etishga harakat qildik. Sayfiddin Boxarziy o'zining "Risolai vasiyoyi Boxarziy" asarida shunday yozadi: "Bu izzatni egallash va to'liq hosil olishga to'rt narsa sabab bo'ladi: yaxshi urug', yaxshi joy, yaxshi o'g'it va qulay vaqt" [1]. Bu iboralar bilan Boxarziy jamiyatda insonlarni komilikka erishuvida yosh avlodning vujudga kelishidan boshlab e'tiborli bo'lishlikni zarur deb hisoblagan. U oilada va jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy, ilm-ziyo bilan yo'g'rilgan muhitning yaratilishi farzandning yoshligidagi odob-axloq masalalari bilan bog'liqligida deb biladi. Farzandlarning tarbiyasida ota-ona, qo'ni-qo'shni, mahalla va elu yurtning ta'siri beqiyos ekanligini aytadi.

Muhokama

Aziziddin Nasafiy o'zining "Komil inson" asarida ham insonda komillikka erishishning to'rt asosiy fazilati bo'lishi lozimligini ko'rsatadi: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif [8]. Najmiddin Komilov Aziziddin Nasafiyning bu

fikrini “Avesto” asari g‘oyalariga o‘xshashligini ta’kidlaydi. “Avesto”da ham haqiqiy, mukammal inson bo‘lib etishishda, uch sifat: ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal mujassam bo‘lishi lozimligi ko‘rsatilgan. Sayfiddin Boxarziy komil inson tarbiyasi uchun zaruriy to‘rt shart – tamoyili bilan Aziziddin Nasafiyning komil insonga xos bo‘lgan sifatlari miqdor jihatidan o‘xshasa ham, mazmun- mohiyatga ko‘ra biri biridan farq qiladi. Shu bilan birgalikda Aziziddin Nasafiyning komil insonga doir g‘oyalarida nuzul va urujga doir fikrlar ham bor. Aziziddin Nasafiy uruj va nuzulda mukammal bo‘lgan kishini, ya’ni “asli paydo bo‘lib, quyiga tushgandan keyin yana kamolotga etib, o‘z asli darajasiga etgan insonni komil inson”, – deydi. Bu g‘oyani targ‘ib qilish Shayxul Olamga ham xos, albatta. Sayfiddin Boxarziy ham insonni vujudga kelishidan, yaralishidan to kamolotga etishigacha bo‘lgan jarayonni kamolotning tadrijiy bosqichlari sifatida biladi va shunga amal qiladi[2].

Sayfiddin Boxarziyning inson kamolotiga oid konsepsiyasining birinchi tamoyili yaxshi urug‘dir.

Yaxshi urug‘ tushunchasini tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, inson kamolotining birinchi asosi uning qanday ota-onadan dunyoga kelishi bilan bog‘liq. Insonning kamolotida juda ko‘p omillar ta’sir etadi: irsiyat, oilaviy tarbiya, tashqi muhit, kishining o‘z istak-irodasi va boshqalar. Boxarziyning fikridan ma’lum bo‘ladiki, insonning kelgusida qanday bo‘lishi uning irsiy asoslari, nasliga bog‘liq. Buni obrazli tarzda quyidagicha izohlash mumkin. Hosilning yaxshisini etishtirmoq niyatida bo‘lgan dehqon, urug‘ning sarasini tanlashi kerak bo‘ladi. Chunki urug‘ning aynan qanaqaligi mahsulotning sifatiga ta’sir etadi. Bug‘doyning qanday navini eksak, xuddi shunday navni olamiz, olmaning qanday turini tanlagan bo‘lsak, shunday olma turini etishtiramiz. Demakki, yaxshi urug‘dan sifatli hosil olish mumkin. Barcha payg‘ambarlar, valiyar hayot tarzini kuzatar ekanmiz ularning nasl-nasabi pokiza (palagi toza) ekanligi ma’lum bo‘ladi. “Maqomoti Amir Kulol” asarida Amir Kulol shunday deganlar:

Nishoni on, ki man farzandi pokam,

Padar ham pok, modar ham afifa.

Mazmuni:

Mening pokligimning belgilari shundaki,
Otam ham pok, onam ham afifadir.

Sayfiddin Boxarziyning “yaxshi urugʻ” gʻoyasida insoniyat uchun eng muhim jihat– naslning pokizaligini saqlash masalasi turadi. Bundan, eng avvalo, oʻgʻil farzand tarbiyasi, farzand ulgʻaygach, unga munosib umr yoʻldosh tanlash vazifasi birlamchi ekanligi anglashiladi.

Sayfiddin Boxarziyning komil inson konsepsiyasining ikkinchi tamoyili “yaxshi joy”dir. Shayxul Olamning yaxshi joy, yaxshi makon tushunchasidan maʼlum boʻladiki, ulugʻ pedagog “yaxshi urugʻ”ning unib-oʻsishi faqat uning sifatiga bogʻliq emas, balki manzilu makoniga ham bogʻliqligini uqtiradi. Yaxshi hosil olish uchun dastlab yaxshi urugʻ tanlansa, undan keyin uni ekish mumkin boʻlgan munosib joy, munosib er, tuproq tanlanadi. Bilamizki, unumli, yaxshi ishlov berilgan erga agar yaxshi urugʻ ekilsa, bu urugʻ unib-oʻsishi uchun etarlicha sharoit boʻladi. Mabodo yaxshi urugʻ nomunosib erga qadalsa, undan yaxshi hosil olish dargumon. Qurʼoni Karimda ham ayollarni hosil beradigan unumli erga oʻxshatilgan jumla mavjud. Darhaqiqat, farzand ayol rahmida toʻqqiz oy ulgʻayib, shakllanadi. Shuning uchun ayol vujudining pokizaligi, halolligi erkak naslining unib-oʻsishiga sharoit yaratadi. Erning sifati urugʻga taʼsir etganidek, ayol vujudi, ruhining pokizaligi nasliga taʼsir etadi. Shuning uchun ham umr yoʻldosh tanlayotganda qiz bolaning nasl-nasabi, iymonu diyonati, halolu pokligiga eʼtibor beriladi.

Boxarziy yaxshi joy tamoyili bilan komil inson tarbiyalashdagi ikkinchi asos bu – munosib makon masalasi ekanligini ilgari suradi. Maʼlumki, oiladagi sogʻlom muhit, etarlicha sharoitning mavjudligi komil shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos boʻla oladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda “Sogʻlom ona-sogʻlom bola” shiori ostida koʻplab ishlar amalga oshirilmoqda. Oilada, jamiyatda ayollarga boʻlgan munosabat masalalariga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Sayfiddin Boxarziyning komil inson haqidagi “yaxshi urugʻ” va “yaxshi joy” tamoyillari keyinchalik Bahouddin Naqshband ijodiga ham taʼsir etgan deyish

mumkin. Bahouddin Naqshband ham zikr masalalari haqida gapirganda, avval erni begona o'tlar, kichik toshlardan tozalab, keyin zikr urug'ini sepish kerak, deb qalbni poklash masalasiga alohida e'tibor bergan. U kishining fikricha, faqat pokiza qalbdagi zikrlardan yaxshi natija chiqadi.

Ya'qubi Charxiyning "Risolai unsiya" asarida Bahouddin Naqshbandning quyidagi fikrlari keltirilgan:

Zi g'ayrat xonai dil ro zi g'ayrat kardaam xoli,
Ki g'ayratro nameshoyad dar in xilvat saro budan[3].

Mazmuni:

G'ayrat qilib, qalb uyimni barcha keraksiz narsalardan tozaladim, bo'shatdim.
Chunki bu xilvat saroyiga (Allohdan o'zga) narsalarga joy yo'q.

Naqshbandiya ta'limotining yirik namoyandasi Maxdumi A'zamning "Risolai bittixiya" asarida yaxshi qovun navini olish uchun yaxshi, sifatli va tozalangan tuproq mavjud makon tanlash kerakligi aytiladi.

Sayfiddin Boxarziy komil inson konsepsiyasining uchinchi tamoyili yaxshi o'g'itdir. Shayxul Olam "yaxshi o'g'it" tushunchasi orqali yaxshi urug' munosib tuproq, tozalangan joyga qadalgandan keyin unib, o'sib, gullab yashnashi uchun yaxshi ozuqa berish masalasiga e'tiborni qaratadi. Chunki yaxshi urug' yaxshi erga ekilsayu, ammo bu er zaruriy ozuqa bilan ta'minlanmasa hosil unib chiqmaydi yoki nimjon, sifatsiz bo'lib unadi.

Sharqning buyuk donishmand pedagoglar fikricha bolani tug'ilgandan keyin emas, ona qornida vujudga kelishidan boshlab tarbiyalash lozim. Boxarziy ham shunday fikrni ilgari surgan. Bu masalada ona va otaning vazifalari asosiy o'rinni egallaydi. Otaning oilani ta'minlash uchun topayotgan maoshi halolligiga shubha bo'lmasligi lozim. Chunki noqonuniy yo'llar bilan birovni norizo qilib topilgan luqma harom bo'lishini allomalarimiz ko'p bor ta'kidlab o'tganlar. Homilador onaning vaqtida darmondorilarga boy, to'yimli albatta halol mahsulotni iste'mol qilishi va ruhiy xotirjam hamda baxtiyor bo'lishi ona tanida shakllanayotgan murg'ak go'dakning sog'lom tug'ilib, komil inson bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Chunki farzand onadan barcha xususiyatlarni o'zlashtiradi. Rivoyatlarga ko'ra Sobit ismli yigit bir tishlam olmani iznsiz eb qo'ygani, natijada egasidan olmaning roziligini so'rash uchun chekkan mashaqqati va taqvodorligi tufayli Hanafiya sunniylik mazhabining imomi Imom A'zam Abu Hanifadek ulug' olimning dunyoga kelishiga sabab bo'ldi. Bu voqeada katta hikmat va oliy ibrat bor.

Sayfiddin Boxarziy komil inson konsepsiyasining to'rtinchi tamoyili "qulay vaqt"dir. Xalqimizda "Vaqting ketdi, naqding ketdi", "Bugungi ishni ertaga qo'yma" degan maqol va o'g'itlari mashhur. Har bir ishni o'z vaqtida amalga oshirish, qulay imkoniyatni topish ish samaradorligining kalitidir. Shuning uchun Shayxul Olam yaxshi urug'ni topib, yaxshi hosildor erga ekib, u munosib ozuqa bilan ta'minlangach, parvarishlashda vaqtiga e'tibor berish lozim, deydi. Bola tarbiyasining ulug' bilimdoni Ibn Sinoning yoniga qirq kunlik go'dagini ko'tarib kelgan ota va ona "Farzandimizga qachondan tarbiya beraylik" deb so'raganlarida Ibn Sino ularning qirq kun kechikkanlarini aytadi. Erga va unib chiqqan hosilga ham suv berish, ham o'g'it berish, ham parvarishlashning o'z vaqti-soati bor. Bola tarbiyasida har bir qulay payt va har bir qulay onni g'animat bilish lozim. Bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va saviyasini inobatga olib, uni tarbiyalashda qulay vaqtni tanlash muhim ahamiyatga kasb etadi. Bolaning biror-bir yutuqqa erishganlik natijasini ko'rishga shoshmaslik kerak. Har bir ishni tadrijiylik asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, bolani ikki yoshgacha faqat shirin so'zlar bilan tarbiyalash yaxshi samara berishi ma'lum. Besh yoshgacha bola atrofni o'rganadi, ijtimoiy hayot haqidagi asosiy ma'lumotlarni shu yosh oralig'ida egallaydi. Bu davrda biz bolaga ko'proq amaliy jihatdan namuna bo'lishimiz, sog'lom oilaviy muhitni yaratishimiz zurur bo'ladi. Keyingi davr ko'proq qattiqqo'llik va intizomli bo'lishni talab etadi. Bu o'smirlik davri bo'lib, bola oq-qorani ana shu paytda ajratadi. Yaxshilikka - mukofot, yomonlikka - jazo muqarrarligini shu paytda anglaydi. Bu davrda farzand to'g'ri yo'lga boshlansa, solih do'stlarga hamroh qilinsa, u odobli bo'lib, yaxshi inson bo'lishi uchun muhim qadam qo'yadi.

O‘n sakkiz yoshdan boshlab, farzand do‘stimiz, hamsuhbatimiz, vaqti kelsa, sirdoshimiz bo‘lmog‘i lozim. Bola ota-onadan hayiqmasligi, vaqti kelsa, sirdoshi bo‘lmog‘i kerak. Bola ota-onani eng yaqin insoni sifatida hurmat qilmog‘i lozim. Bu ma‘lum ma’noda oxirgi bosqich bo‘lib, ushbu davrdan farzandimizni qay darajada tarbiya topganligining samarasini ko‘ra boshlaymiz. Shu bosqichgacha amalga oshirilgan tarbiya farzand umrining oxirigacha hamroh bo‘lib qoladi.

Bolaning ta‘lim olishida o‘ta qattiqqo‘llik yaramaydi. Bunga odatda va shirinso‘zlik bilan yondashiladi. Aks holda zo‘rlab singdirilgan ta‘lim xotirada uzoq saqlanmasligi mumkin. Oqibatda farzandlarning shu sohaga nisbattan qiziqishi susayadi.

Xulosa

Sayfiddin Boxarziy Komil insonni tarbiyalagan ota-onani juda yaxshi hosil olgan dehqon bilan qiyoslaydi. Komil insonni tarbiyalagan kishini butun borliq va koinot qo‘llab-quvvatlashini “Voqeoti xilvat” asarida quyidagicha izohlaydi: “Dehqonlarning boshqa insonlardan ko‘ra afzalligi osmondagi oyning barcha yulduzlardan ko‘ra afzaligi kabidir. Biror bir farishta biror dehqonning ziroati yonidan duo qilmasdan o‘tmaydi, uning ziroatiga baraka bilan duo qiladi. Allohning farishtalari borki, ularning soniga hech kim etmagan va bu farishtalar qiyomatga qadar dehqonlarga Allohdan mag‘firat va duo tilab gunohlarini kechirishni tilab turadilar, va ularga savob yozib turadilar” [4]. Sayfiddin Boxarziy komil insonni tarbiyalagan kishini oyga qiyoslab, quyosh nurini o‘zida aks ettirishida barcha yulduzlardan afzalligini ta’kidlaydi. Komil insonni tarbiyalayotgan kishiga son-sanoqsiz farishtalar duolar qilib, Allohdan mag‘firat so‘raydi va savob yozadi, deb ta’kidlaydi. Yuqoridagi fikrlarni davom ettirib, Sayfiddin Boxarziy yozadi: “Chunki dehqonning ishi og‘ir va shu bilan ham uning mukofoti ziyodadir. Barcha vahshiy hayvonlar va parrandalar, dengiz baliqlari, er yuzining hasharoti, har bir quruq va ho‘l tosh va kesak dunyoning G‘arb va Sharqida mavjud bo‘lsa, peshovard, ya’ni dehqonlarga barakat tilab duo qiladilar” [5]. Bu so‘zlar orqali Shayxul Olam komil insonni tarbiyalash jarayoni juda mashaqqatli ekanligi va shuning uchun ham uning mukofoti ulug‘ligini ta’kidlaydi

Ulug' allomaning falsafiy fikrlari rivojini yana quyidagi bayonda ko'ramiz: "Zeroki, dehqonlar o'z parvardigoriga tavakkul qiladilar, ularning muomalasi parvardigorlari bilandur. Sirot ko'prigidan chaqmoq kabi payg'ambarlar, siddiqlar, shahidlar va solihlar hamrohligida o'tib ketadilar va Payg'ambarlar kabi shafolat ahli bo'ladilar. Dehqon tanasining qoni va ro'zador og'zining hidi qiyomat kuni Xudoyi taoloning nazdida tengdir. Dehqon badanining terisi va g'azot ahli badanining terisi birga bo'lsa, Haq taoloning nazdida barobardir. Qiyomat kuni Alloh taolo aytadi: "Ey bandalarim, ya'ni ey dehqon bandalarim, jannatning qaysi eshigidan xoxlasanglar kiringlar"[6].

Sayfiddin Boxarziyning komil inson tarbiyasi jarayonini dehqon mehnati bilan tenglashtirish g'oyasi Naqshbandiya ta'limotining yirik namoyandasi Maxdumi A'zamning "Rilolai Vujudiya"[7] asaridagi vujud dehqoni g'oyasi bilan o'ziga xos umumiylikka ega.

Adabiyotlar ro'yxati

1. نشر دیبایه 1396 ص. تهران تصحیح: ایرج افشار برای سید شمس 109.:
الدین.. شیخ العالم سیف الدین باخرزی. رساله وصایای باخرزی
2. <https://jahonadabiyoti.uz/2019/06/03/aziziddin-nasafiy-komil-inson-kitobi>
3. Nasafiy Aziziddin. Zubdat ul-haqoyiq. /Haqiqatlar qaymog'i/ N.Komilov tarj. – Toshkent: Kamalak, 1996. – B.56.
4. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband-jahonshumul ta'limot asoschisi / Bahouddin Naqshband. Avrod. (To'ldirilgan qayta nashr). Maqola, izoh va sharhlar muallifi G.N. Navro'zova. –Toshkent: Sano Standart, 2019. – B.27.
5. ص1396. نشر دیبایه. تهران: ترجمه: مولانا غلام نبی توکلی پشته ئی. وقایع 30.
الخلوه. شیخ العالم سیف الدین باخرزی
6. ص1396. نشر دیبایه. تهران: ترجمه: مولانا غلام نبی توکلی پشته ئی. وقایع 30.
الخلوه. شیخ العالم سیف الدین باخرزی
7. ص 1396. نشر دیبایه. تهران: . ترجمه: مولانا غلام نبی توکلی پشته ئی 31.
وقایع الخلوه. شیخ العالم سیف الدین باخرزی
8. Maxdumi A'zam. Risolai vujudiya (vujud haqida risola), maqolalar muallifi, tarjimon va to'plab nashrga tayyorlovchilar: Navro'zova G., Zoirov E. –

Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2006. –100 b; Zoirov.E. Maxdumi A'zam.
– Toshkent: Abu matbuot konsalt, 2011. – B.18-25.